

Bu loyihani amalga oshirishda raqobatbardosh bozorga taqlid qilish maqsadida Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi platforma ishtirokchilari (tijorat banklari)ga o'z imkoniyat va resurslaridan kelib chiqqan holda yetkazib berish hajmi to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot berish majburiyatini yuklashi zarur. Shuningdek, bu platformada bank xizmatlariga talabni (platformada so'rovlar shaklida) hisobga olish kerak, shundan so'ng bank xizmatlari uchun muvozanatli bozor narxi (foiz) shakllanadi.

Keyinchalik, platformani yaratish, kreditlar bo'yicha foiz stavkalari sezilarli darajada kamayadi, ammo bu berilgan kreditlar miqdori oshishiga olib keladi. Bu tamoyilning natijasi o'laroq, kreditlashdan eng katta samarani kredit iste'molchilari oladi, ya'ni korxonalar, ularning rivojlanishi kelgusida ularga kredit olish imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Усманов А. С. и др. *Цифровизация в имитации конкурентного рынка финансовых услуг //социально-экономическое и экологическое развитие приграничного региона: возможности и вызовы.* – 2022. – С. 211-214.

2. Абдулазизова Ў. *Проблемы формирования конкурентного рынка финансовых услуг Узбекистана //Iqtisodiyot va ta'lim.* – 2023. – Т. 24. – №. 3. – С. 12-21.

AHOLI TOMORQALARIDAN FOYDALANISHNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH YO'NALISHLARI

Xakimov Zafar

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Moliya va statistika” kafedrasida v/b, PhD*


Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligi keyingi yillarda bir muncha pasayib ketmoqda. Sababi, sohani rivojlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yetarli darajada amalga oshirilmashligi va e'tibordan chetda qolishi tomorqa yer egalari faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Aholi tomorqalarini rivojlantirish orqali real daromad miqdorini oshirish, aholini bandligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarda qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi va ajratiladigan mablag'lar miqdori mamlakatda yaratiladigan YAIM hajmiga bog'liq. Shunday ekan, YAIM qancha ko'proq yaratilsa, qishloq xo'jaligiga ajratiladigan mablag' miqdori shuncha oshib boraveradi.

Mamlakatda olib boriladigan pul-kredit siyosati aholini arzon va zaruriy mablag' bilan ta'minlash imkonini beradi. Tijorat banklari orqali beriladigan kreditlarning foiz stavkasining past yoki yuqoriligi, kreditlash mexanizmining qay darajada yo'lga qo'yilganligi tomorqa xo'jaligi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Kredit foiz stavkasining yuqoriligi mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi

mahsulotlari tannarxinining yuqoriligi aholining xarid qobiliyatini pasaytirish bilan birga aholining oʻrtacha daromadi va jamgʻarmasining kamayishiga olib keladi.

Tadqiqotchi tomonidan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan moliyaviy qoʻllab-quvvatlash shakllarining vujudga kelishi va ularning integratsiyalashuvi 1-rasmda koʻrsatib oʻtildi.



1-rasm. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash shakllari va usullari

Izoh: Muallif tomonidan shakllantirilgan

Ushbu rasmda aks etgan bevosita qoʻllab-quvvatlash shakllariga qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni moddiy texnik resurslar uchun byudjetdan ajratiladigan subsidiyalar, kredit foiz stavkalarini maʼlum bir qismini qoplash uchun subsidiyalar, sugʻurta xarajatlarni qoplash uchun davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar eng samarali usul hisoblanadi. Bu usul xorijiy malakatlar iqtisodiyotida uzoq muddat foydalanilgan va amaliyotda keng qoʻllanilib kelingan.

Bilvosita shakllariga tijorat banklari kreditlari, soliq imtiyozlari, bojxona to'lovlari uchun imtiyozlar, ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari, davlat ehtiyoji uchun sotib olingan mahsulotlar, tashqi bozorda mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoya qilish kabi iqtisodiy vositalarni qo'llash kiradi.

Amaliyotda keng uchrab turadigan ta'sir qilish usullaridan biri vositachilar orqali ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Bunda tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalar, sohaga oid davlat dasturlarini ishlab chiqish, xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash muassasalari, ixtisoslashtirilgan moliyaviy institutlar va hokazolar hisoblanadi. Aholi tomorqalaridan foydalanuvchilar kategoriyasini aniqlashtirish va ta'rifni shakllantirish lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida" gi Qonunida aholi tomorqa xo'jaligiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tomorqa xo'jaligi - shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish bilan bog'liq mehnat faoliyatidir" [1].

Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, aholi tomorqalaridan foydalanuvchilar bo'lib, kadastr hujjatlarida aks etgan shaxsiy yer maydoniga ega, oila mehnatiga asoslangan, mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash orqali o'z iste'molidan tashqari bozorga sotish uchun faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslar tushiniladi. Tomorqa xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar o'zlarining asarlarida takidlab o'tishgan. Xususan, V.G.Zakshevskiy esa qishloq xo'jaligi samradorligini intensiv usulda rivojlantirishda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash lozimligi, sohaga yangi innovatsion texnologiyalarni olib kirish, yer va suv resurslaridan tejab-tergab foydalanish zararligini ta'kidlaydi [2].

N.V. Jaxov iqtisodiyotni tartibga solishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tomorqa yer egalari iqtisodiy vositalar orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlashni bir vaqtning o'zida olib borish zarurligini ta'kidlaydi. Aks holda, oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamayib, narxlarning keskin oshishi va taqchillik vujudga kelishi lozimligini uqtiradi[3].

Ye.Rudoy fikriga ko'ra, endi ish boshlayotgan qishloq xo'jaligida kichik biznes subyektlarini moliyalashda asosiy e'tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi[4].

S.Xudoykulovning ilmiy tadqiqotlari natijalari ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va aholini ehtiyojmand qismi uchun yer va mol-mulk solig'idan imtiyoz berish zarurligi ta'kidlanadi. Soliq kreditini intizomli soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llash yerdan foydalanish samradorligini oshishiga xizmat qiladi. Shu yo'l bilan foydalanish (oborot)dan chetda qolgan yer resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyati yaratiladi [5].

A.Shomirov tomorqa yer egalari faoliyatini investitsiyalashda XMI tomonidan past foizli va uzoq muddatli moliyaviy resurslar evaziga to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb qilish samaraliroq ekanligini ta'kidlaydi[6].

Qishloq xo‘jaligida tomorqa yer egalari faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

➤ qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilar sonining boshqa tarmoqqa nisbatan kamligi;

➤ mijozning oshkora emasligi, “xufyona” daromadlar darajasining yuqori ekanligi;

➤ mijozning moliyaviy holatini, uning kredit to‘loviga layoqatlilikini obyektiv baholash uchun zarur bo‘lgan ishonchli manbalarning yetarli emasligi;

➤ joriy hisob-raqamlar bo‘yicha aylanmalarning mavjud emasligi;

➤ tushumning asosiy oqimlarini naqd pullarda o‘tayotganligi;

➤ iqtisodiy (moliyaviy) bilimlarning yetarli emasligi (biznes-rejalarning sifatini past ekanligi);

➤ kreditlash maqsadlari, bank mahsulotlarining mohiyatini aniq tushunishning, bank bilan ishlash tajribasining mavjud emasligi;

➤ iqtisodiyotning real sektoridagi bir yildan ortiq muddatdagi investitsiyalar uchun zarur bo‘lgan resurslarning, ayniqsa, arzon va uzoq muddatli resurslarning yetarli emasligi;

➤ tomorqa yer egalarining huquqlarini himoya qilish borasidagi qonunchilikning takomillashmaganligi banklarga yuqori riskli bitimlarni moliyalashtirish imkonini bermayotganligi.

Ushbu ko‘rsatib o‘tilgan muammolarni bartaraf etish kichk yer egalari faoliyatini rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021-yil 1-aprel.

2. Zakshevskiy V.G. *Upravleniye innovatsionnoy deyatelnostyu v agrarnom sektore* / V.G. Zakshevskiy // *APK: Ekonomika, upravleniye*. - 2010. - №7. - S. 19-22.

3. Jaxov N.V. *Gosudarstvennoye regulirovaniye i podderjka agrarnogo proizvodstva* / N.V. Jaxov. - Kursk: “Delovaya poligrafiya”, 2012. - 182 s.

4. Rudoy Ye.V. *Sovershenstvovaniye gosudarstvennoy podderjki selkoxozyaystvennogo proizvodstva na urovne regiona* - Novosibirsk: Prometey, 2009. -S.56-59.;

5. Xudoyqulov S.K. *O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasi va soliq strategiyasining uzviyligini ta‘minlash masalalari. O‘zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasi: makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va innovatsion rivojlanish istiqbollari: xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami.-T: 2020. -124 b*

6. Shomirov A.A. *Suuynost gosudarstvennoy investitsionnoy politiki i etapy realizatsii. “Zamonaviy biznesni boshqarish, iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va ijtimoiy fanlarni rivojlantirish: nazariya va amaliyot uyg‘unligi” mavzusidagi oliy o‘quv yurtlariaro xalqaro konferensiya materiallari to‘plami –T.: TMI., 2021.*